

NAVOIY VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-avgust*)

Navoiy viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4007,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 552,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 92,4 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3455,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 567,7 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,0 %ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)



*-dastlabki ma'lumotlar

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Xatirchi tumani, Karmana tumani, Navbahor tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,4 %ga o'sdi va 552,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,8 % ulushiga to'g'ri keladi.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	Jamidan			
		Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	4007,5	552,1	13,8	3455,4	86,2
<i>shahar va tumanlar:</i>					
Navoiy shahar	1411,2	525,4	37,2	885,8	62,8
Zarafshon shahar	359,6	6,1	1,7	353,5	98,3
Karmana tuman	607,1	1,6	0,3	605,5	99,7
Konimex tuman	102,1	0,6	0,5	101,5	99,5
Qiziltepa tuman	465,6	6,0	1,3	459,6	98,6
Navbahor tuman	236,8	0,6	0,3	236,2	99,7
Nurota tuman	155,6	1,8	1,2	153,8	98,8
Tomdi tuman	30,0	0,2	0,6	29,9	99,4
Uchquduq tuman	198,2	0,4	0,2	197,8	99,8
Xatirchi tuman	441,3	9,5	2,1	431,8	97,9

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 3455,4 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2,0 %ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,2 %ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi**



Joriy yilning yanvar-avgust oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Uchquduq (99,8%), Navbahor (99,7%), Karmana (99,7%), Konimex (99,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,8 %ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (37,2 %) va Xatirchi tumanida (2,1 %) kuzatilgan.


**Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	4007,5	3978,2	29,3

shahar va tumanlar:

Navoiy shahar	1411,2	1382,0	29,2
Zarafshon shahar	359,6	359,6	-
Karmana tuman	607,1	607,0	0,1
Konimex tuman	102,1	102,1	-
Qiziltepa tuman	465,6	465,6	-
Navbahor tuman	236,8	236,8	-
Nurota tuman	155,6	155,6	-
Tomdi tuman	30,0	30,0	-
Uchquduq tuman	198,2	198,2	-
Xatirchi tuman	441,3	441,3	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)da
2019 yil yanvar-avgust**




Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-avgust oylarida 3978,2 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,5 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-avgust oylarida 29,3 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,5 foizga ko'paydi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (35,2 foiz), Karmana tumani (15,1 foiz), Qiziltepa tumani (11,6 foiz), Xatirchi tumani (11,0 foiz), va Zarafshon shahri (9,0 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


Chakana savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi



Jumladan, 2019 yilning yanvar-avgust oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 % ni tashkil etib, 100,7 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan

2,2 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,8 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari
savdo aylanmasi hajmi (mlrd.so`m) va o`shish sur`atlari**



Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi 9,3 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 %ga kamaygan), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 91,4 mlrd. so`mni (o`shish sur`ati 3,1 %) tashkil etdi.

**Viloyatda yirik umumiy ovqatlanish korxonalarining
tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	O`shish sur`ati, % da	Shundan		
			Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`shish sur`ati, % da	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	100,7	102,2	9,3	93,9	9,2

shaharlar

Navoiy shahar	40,2	101,6	9,2	95,6	22,9
Zarafshon shahar	11,4	103,1	-	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana tuman	18,2	103,2	0,8	95,9	0,4
Konimex tuman	2,1	102,4	-	-	-
Qiziltepa tuman	8,7	102,6	-	-	-
Navbahor tuman	3,3	101,9	-	-	-
Nurota tuman	2,5	97,0	-	-	-
Tomdi tuman	1,0	102,4	-	-	-
Uchquduq tuman	4,0	102,9	-	-	-
Xatirchi tuman	9,2	102,5	-	-	-


**Viloyatda kichik umumiy ovqatlanish korxonalarining
tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	O'sish sur'ati, %da	Shundan		
			Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O'sish sur'ati, %da	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	100,7	102,2	91,4	103,1	90,8
<i>shaharlar</i>					
Navoiy shahar	40,2	101,6	31,0	103,5	77,1
Zarafshon shahar	11,4	103,1	11,4	103,1	100,0
<i>tumanlar:</i>					

Karmana tuman	18,2	103,2	18,1	103,3	99,6
Konimex tuman	2,1	102,4	2,1	103,7	100,0
Qiziltepa tuman	8,7	102,6	8,7	102,7	100,0
Navbahor tuman	3,3	101,9	3,3	102,5	100,0
Nurota tuman	2,1	97,0	2,1	102,4	100,0
Tomdi tuman	1,4	102,4	1,4	102,3	100,0
Uchquduq tuman	4,0	102,9	4,0	102,9	100,0
Xatirchi tuman	9,2	102,6	9,2	102,6	100,0

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibidagi ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Zarafshon shahrini, Xatirchi tumani, Qiziltepa tumanini misol keltirishimiz mumkin.

Navoiy viloyatida mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi ulushi, (%)da 2019 yil yanvar-avgust



Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-avgust oylarida 91,5 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 6,0 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-avgust oylarida 9,2 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 6,0 foizga ko'paydi.


Mulkchilik shakli bo'yicha
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	100,7	91,5	9,2
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	40,2	31,2	9,1
Zarafshon shahar	11,4	11,4	-
Karmana tuman	18,2	18,1	0,1
Konimex tuman	2,1	2,1	-
Qiziltepa tuman	8,7	8,7	-
Navbahor tuman	3,3	3,3	-
Nurota tuman	2,5	2,5	-
Tomdi tuman	1,0	1,0	-
Uchquduq tuman	4,0	4,0	-
Xatirchi tuman	9,2	9,2	-

NAVOIY VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-avgust*)

2019 yil yanvar-avgust oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1489,1 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 4,8 foizga oshdi.



- | | |
|-------------|----------------|
| ■ Navoiy sh | ■ Zarafshon sh |
| ■ Karmana | ■ Kenimex |
| ■ Qiziltepa | ■ Navbahor |
| ■ Nurota | ■ Tomdi |
| ■ Uchquduq | ■ Xatirchi |


Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, 852,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,8 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 57,2 %ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasining ulushi esa 42,8 %ni tashkil etdi.

*-dastlabki ma'lumotlar

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari kuzatilib, nisbatan o`shish sur`atlari Navoiy shahri, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani, Karmana tumani, Zarafshon shahrida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko`rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko`rsatkich Konimex tumaniga to`g`ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`shish sur`atlari, (%)da**



**Ulgurji savdo tovar aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	1489,1	636,9	42,8	852,2	57,2
Navoiy shahar	1063,1	211,6	19,9	851,5	80,1
Zarafshon shahar	33,8	33,8	100,0	-	-
Karmana tuman	229,6	229,6	100,0	-	-

Konimex tuman	6,5	6,5	100,0	-	-
Qiziltepa tuman	44,1	44,1	100,0	-	-
Navbahor tuman	48,2	48,2	100,0	-	-
Nurota tuman	5,0	5,0	100,0	-	-
Tomdi tuman	1,3	1,3	100,0	-	-
Uchquduq tuman	8,6	8,6	100,0	-	-
Xatirchi tuman	48,9	48,2	98,6	0,7	1,4

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.


Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 1063,1 mlrd. so'mni tashkil etadi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,4 %ni tashkil qiladi.)

**Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	1489,1	1488,4	0,7
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	1063,1	1063,1	-
Zarafshon shahar	33,8	33,8	-
Karmana tuman	229,6	228,9	0,7
Konimex tuman	6,5	6,5	-

Qiziltepa tuman	44,1	44,1	-
Navbahor tuman	48,2	48,2	-
Nurota tuman	5,0	5,0	-
Tomdi tuman	1,3	1,3	-
Uchquduq tuman	8,6	8,6	-
Xatirchi tuman	48,9	48,9	-


**Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)da
2019 yil yanvar- avgust**



Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-avgust oylarida 1489,1 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,01 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-avgust oylarida 0,7 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,01 foizga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida
viloyat hududlarining ulushi



Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (71,4 foiz), Karmana tumani (15,4 foiz) va Xatirchi tumani (3,3 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (0871) 230-84-36